


XALQARO NORDIK UNIVERSITETI MAGISTRANTI
NAZIRQULOVA NODIRA

MAVZU: XARAKTER



XARAKTER NIMA?

- Xarakter - shaxsning voqelikka boʻlgan munosabatlarini ifodalovchi uning xulq-atvori va xatti-harakatlarida namoyon boʻladigan barqaror xususiyatlarning individual tarzdagi yigʻindisi.



- Psixopatiya - aqliy qobiliyat saqlanib qolgani tarzda boshqa kishilar bilan bog`liq xarakterga oid hastalik, ba`zan atrofdagilar uchun ijtimoiy xavfli bo`lishi ham mumkin.





- Har bir odam har qanday boshqa odamdan o`zining individual - psixologik xususiyati bilan ajralib turadi. Bu erda gap xarakter haqida boradi. “Xarakter” so`zi aynan tarjima qilinganda grekchadan “tamg`a” degan ma`noni anglatadi. Lekin har qanday individual xususiyatlar ham xarakter bo`la olmaydi. Masalan, ko`rish va eshitishning o`tkirligi, tez esda olib qolish bu xarakter emas.

- Psixologiya tarixida xarakterning tipologiyasini yaratishga bir necha bor urinib ko`rilgan. Nemis psixologi va psixiatri e.Krechmer tomonidan XX asr boshlarida tavsiya etilgan tipologiya eng mashhur va dastlabki urinishlardan biri edi. Keyinchalik uning hamkasblari U.S.Heldon, e.Fromm, K. Leongard va A.E.Lichkolar tomonidan ham shunday tipologiyalar tavsiya etildi. Inson xarakterining barcha tipologiyalari quyidagi asosiy g`oyalarga muvofiq tarzda tashqil etilgan:



INSON XARAKTERI UNING ONTOGENETIK
TARAQQIYOTI MOBAYNIDA JUDA ERTA NAMOYON
BO`LA BOSHLAYDI VA BUTUN HAYOTI DAVOMIDA
BARQAROR BO`LIB BORADI.




MAZKUR TIPOLOGIYAGA KO`RA, KO`PCHILIK
KISHILARNI MA`LUM GURUHLARGA
BIRLASHTIRISH MUMKIN.





ASTENIK TIP - KRECHMER FIKRICHA, UNCHA KATTA BO`LMAGAN GAVDA TUZILISHI URTACHA YOKI UNDAN BALANDROQ BO`YLI, ORIQ KISHILARDIR. ASTENIKLARNING TANA VA YUZ TERISI NOZIQ, ELKASI TOR, YASSI, MUSHAKLARI YAXSHI RIVOJLANMAGAN.



ATLETIK TIP - SKELET VA MUSHAKLAR
YAXSHI RIVOJLANGAN, O`RTACHADAN
YUQORI, BALAND BO`YLI, KENG
ELKALI, KUCHLI KO`KRAK QAFASLI,
BOSHINI TIK TUTIB YURADIGAN
KISHILARDIR.



PIKNIK TIP - BOSH, KO`KRAK QAFASI VA QORIN BO`SHLIGI YAXSHI RIVOJLANGAN, SEMIRISHGA MOYIL, TAYANCH - HARAKAT A`ZOLARI YAXSHI RIVOJLANMAGAN KISHILARDIR.